

SUHBATLARDA BADIYYAT NAFASI**Hakimov Kamol Normuhammadovich**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

"Jahon adabiyoti va qiyosiy adabiyotshunoslik" kafedrası o'qituvchisi.

kamolxakimov8511@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.11530010>

Annotatsiya. Maqolada hozirgi adabiy jarayon, unda suhbat janrining o'rni, ayni janrga xos tarixiy va nazariy xususiyatlar haqida fikr yuritiladi. Bunda marhum professor, yirik munaqqid Umarali Normatovning adabiy suhbatlari manbaviy asos vazifasini bajargan. Suhbatlarda Xudoyberdi To'xtaboyev, Omon Matjon, Shukur Xolmirzayev va boshqa adiblarning ijod yo'llariga U.Normatov va boshqa adabiyotshunoslarning munosabati, suhbat janrida qiyosiy tadqiq masalalariga diqqat qaratilgan.

Kalit so'zlar: suhbat janri, muqoyasa, tahlil, tadqiq, dialogik jarayon, munaqqid nigohi, amaliyot va nazariya, hajviyot, she'riyat, nasr.

A BREATH OF ARTISTRY IN CONVERSATIONS

Abstract. The article discusses the current literary process, the role of the dialogue genre, and the historical and theoretical features of this genre. Literary conversations of professor U.Normatov served as a source basis. In the interviews, attention was paid to U.Normatov's attitude to the creative paths of H.Tokhtaboyev, Amon Matjon, Shukur Kholmirzayev and other writers, and to issues of comparative research.

Key words: Conversation genre, comparison, analysis, research, dialogic process, critical view, practice and theory, humor, poetry, prose.

ДЫХАНИЕ ИСКУССТВА В РАЗГОВОРАХ

Аннотация. В статье рассматривается современный литературный процесс, место в нем жанра диалога, историко-теоретические особенности этого жанра. Источниковой основой послужили литературные диалоги покойного профессора, крупного критика Umarali Normatova. В интервью уделяется внимание отношению У. Normatova и других литературоведов к творческому пути Худойберди Тохтабоева, Амона Матждона, Шукура Холмирзаева и других писателей, а также вопросам сравнительного исследования в жанре интервью.

Ключевые слова: диалоговый жанр, сравнение, анализ, исследование, диалогический процесс, критический взгляд, практика и теория, юмор, поэзия, проза.

Jahon adabiyoti tarixidan ma'lumki, adabiy suhbatlar, hayotiy-falsafiy mushohadalar va bu orqali jamiyatdagi adabiy-badiiy hodisalar doirasigina emas, balki, ijtimoiy-siyosiy tartib-qoidalar, davr muammolari, kishilarning orzu-umidlari, fojeliqlar, moddiy hamda ma'naviy tanazzullar haqida fikr yuritish, eng muhimi, bir ziyoli shaxsning umumiy va xususiy kuzatuvlari haqida shaxsiy xulosalar chiqarish inson kamoloti uchun muhim jarayondir. I.Ekkermanning "Gyote bilan gurunglar", rus olimi Pavel Annenkovning "Adabiy xotiralar" asarlari shunday manbalarning noyob namunalari. Ulardagi yuzma-yuz suhbatlarda, xat yozishmalarida yuksak ehtirom, ulkan did, bemisl saviya mujassam bo'lgan.

O'zbek adabiyotida Umarali Normatovning ijodkorlar bilan o'tkazgan adabiy suhbatlari yuqorida nomi tilga olingan manbalar singari qadrlil xotiralar sirasiga kiradi.

Adabiy jarayon nazariyadan emas, balki badiiy asardan tug'iladi.

O'zbek adabiyotida o'z tahrir maktabiga asos solgan yozuvchi, shoir, dramaturg va tarjimon A.Muxtorning ijod va ijodkor xususidagi fikrlari juda teran, mohiyatan chuqur asosga ega. Quyidagi fikrlari yig'ilsa, ijodkorning ilmiy ahamiyatga molik adabiy-estetik qarashlari shakllanadi:

- Yozilgan satr toki o'qilmas ekan, u o'lik;
- Yozuvchilik kasb emas, talantli shaxsning yashash tarzi;
- Yozuvchi uchun kuzatish, o'ylash, his qilish juda muhim ish;
- She'riyatsiz nasr yo'q;
- Kallada yangi kitob haqida fikr bo'lmasa – bu so'lg'inlik.

Bu qatorni ancha davom ettirish mumkin. Ta'kidlamoq joizki, katta ijodkorning quyuq hikmatlari tug'ilishida savollarni o'rnini topib, mohirlik bilan muloqot yuritayotgan munaqqidning xizmatlari beqiyosdir. Yana bir qiziq holat shundan iboratki, ko'p adabiyotshunoslar A.Muxtorning bir qator she'rlarida hissiyot jilvalari mavjud emasligini, meditatif she'riyat o'rnini ratsionalistik usulda yozilgan lirika namunalari egallaganini qayta-qayta ta'kidlaydilar. Boshqa tahlilchilar esa buni inkor etib turgan bir paytda ijodkorning o'zi bir qancha she'rlari ratsionalizmning namunalari ekanini ro'yirost tan olgandek bo'ladi: "Ijodkor hamma narsani bilishi kerak...Parvoz yaxshi, uchish kerak. Lekin qayoqqa? Buni aniqlab olish kerak!"¹ Ushbu fikrlarda chegara bilmas, sermavj hissiyotni jilovlash ochiq ko'rinib turibdi. Ammo bu xulosani qat'iy deb tushunmaslik lozim. "Yulduzim", "Yo'l", "Tug'ilgan kunim" she'rlari sarhadsiz hissiyotning mevalaridir. Munaqqid va ijodkor realistik adabiyotda bevosita ko'rish, kuzatishning yozuvchi uchun qanchalar muhimligi borasida bir to'xtamga kelish murakkab vaziyatdir.

¹ Normatov U. Tanlangan asarlar. – T.: Sharq, 2021. – B. 270.

U.Normatov reallikning yanada tabiiy bo'lishi uchun yozuvchi voqelikni kuzatishi muhim ekaniga urg'u bersa, A.Muxtor buning shart emasligini ta'kidlab turib, misol tariqasida Tolstoy Napoleonni, Pushkin Pugachyovni hayotligida ko'rmaganini asos qilib keltiradi. Xuddi shunday xulosani P.Qodirov ham to'g'ri deb hisoblaganidan sezish mumkinki, ijod ahli ko'proq hissiyotlariga, qalb so'ziga, fantaziyalarga quloq tutsa, ilm ahli faktorlarni muhim deb hisoblaydi. Ularning ish uslubidan kelib chiqilsa, bu normal holat ekani ravshanlashadi.

"Dunyoni yangicha ko'rish ehtiyoji" sarlavhali adabiy suhbat olimning "Ijod sehri" kitobidan o'rin olgan. Ushbu adabiy muloqotda Umarali Normatov modern adabiyot muammolari, qonuniyatlari haqida uzil-kesil o'z xulosalarini bayon etadi. Unga ko'ra, modern she'riyatda uch unsur mavjud:

- a) original poetik fikr;
- b) original poetik tuyg'u;
- c) original poetik manzara ohangi.

Xulosaga misol tariqasida Faxriyorning "Kuz yomg'iri" turkumidagi quyidagi she'riy parcha keltiriladi:

Na ko'z tikarga, na umid- bog'larga,
Na so'z- aytarga, na dimog'- chog'larga,
Na gul-sevarga, na ko'ngil- dog'larga,
Kuz yomg'iri,
Hijron yomg'iri...

U.Normatov ushbu baytda keraksiz, ortiqcha, o'rinsiz tuyulgan tinish belgilari, ayniqsa, tire, vergullar bandda fikr, tuyg'u izhori ifodasi uchun zaruriy element, poetik vositaga aylanishiga ko'proq e'tibor qaratadi. She'r qurilishini modern shakllarga to'la mos kelishiga urg'u beradi. Mazkur she'rda umidsizlik ummoniga g'arq bo'lgan lirik qahramon kechinmalari tasvir etilmoqda. Xalq ertaklari-yu qahramonlik dostonlari syujetidan ma'lumki, botirlar boshiga tushadigan sinovlar ketma-ket yuz beradi. Mabodo sinov yagona bo'lgan taqdirda ham uning ortidan bevosita unga bog'liq ikkinchi imtihon boshlanadi.

Ustoz munaqqid Faxriyorning ushbu she'rini chinakam poetik ixtiro, deb baholaydi. Tanqidchi nazarda tutgan ixtiro faqat original shakl hamda tinish belgilarida emas, original mazmun- mohiyatda hamdir. Shunday bo'lsa ham U.Normatov she'riy parchalarning shakliyl qurilishiga ko'proq e'tibor qaratadi, asar mazmuni, ohoriyligining bosh mezonlaridan biri shakl va mazmunning o'ziga xosligi, uyg'unligi deb biladi. Olim uchun anafora, epifora, epitet, graduonimik qator, ellipsiya, tavnologiya kabi ijoddagi turli adabiy-shakliyl hodisalar muhim sanaladi. Albatta, hissiyotni noodatiy tarzda, original poetik fikr + tuyg'u + manzara

ohangdorligida, neoshakllarda ifodalash- badiiy kashfiyotlar deyish uchun katta asos bo'la oladigan unsurlar. Biroq so'zning o'z bag'rida yashiringan tilsimoti ochilmas ekan, shakl ta'sirsiz bir tana bo'lib qolaveradi.

Faxriyorning yuqorida bayon etilgan she'ridagi mahzunlikning ikki sababi:

a) shaxsda yor timsolidagi kelajakka ko'z tikishga ham, so'z aytilishga ham, bu orqali dimog' chog'lashga ham umidi qolmagandek tassurot uyg'otuvchi pinhoniyy umid;

b) termilish uchun ko'z, kelajakka bog'lanish uchun umid, aytilish uchun so'z, sevisish uchun gulning yo'qligi.

Dastlabki holatda qahramonning urinishlaridan so'ng paydo bo'lgan noumidligi umidli harakatlardan keyin sodir bo'lgan vaqtincha tushkunlik alomati sifatida aks etsa, keyingi tasvirda olg'a intilishga xohishi, ishonchi, bo'lmagan lirik qahramon qiyofasi gavdalanadi. "Kuz yomg'iri", "hijron yomg'iri" sifatlashlari nursiz qalbning beshavq holati belgisi. Ayni damda lirik qahramonning mazkur ekzistensial ruhiy holati foniy moddiyatning, ijtimoiy munosabatlarning oniy ta'siri bilan bog'liq ekanini ham ta'kidlash joiz. Shoirning ixtirosi aynan iyhom shaklda ifoda etilgan pinhoniyy dardni tasvirlashida. Mana shunday badiiy sinoatlar jarayonida esa turlicha shakl, tinish belgilar, umuman ohori to'kilmagan lirik kompozitsiya muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Umarali Normatovning adabiy suhbatlarida asosan ijod va ijodkor olami, adabiy jarayondagi turli o'zgarishlar, o'zbek va jahon adabiyoti muammolari mavzulari asosiy o'ringa chiqadi. Suhbat asnosida "munaqqid+ijodkor", "munaqqid+olim", "ijodkor+ijodkor" pozitsiyalaridagi hammualliflarni ko'rish mumkin. Ushbu suhbatlarda nafaqat adabiyot, balki tarix, sotsiologiya, falsafa, psixologiya, publitsistika bilan bog'liq mulohazalar bayon etiladi.

REFERENCES

1. Normatov U. Tanlangan asarlar. – T.: Sharq, 2021.
2. Normatov U. Ijod seҳri. – T.: Sharq, 2007.
3. Normatov U. Naфosat гурунглари. – T.: Muҳarрир, 2010.
4. Normatov U. Kўngилларга кўчган шеърят. – T.: ЎзМУ нашриёти, 2006.
5. Қўшжонов М. Бадиият қонуниятлари. – T.: Шарқ, 2019.
6. Улуғов А. Адабиётшунослик назарияси. – T.: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2018.